O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI HOKIMINING

QARORI

220100, Urganch shahri, Al-Xorazmiy ko‘chasi, 29-uy, tel: (62) 223-00-42, fax: 223-00-22

2024 - yil 1 - iyul 260-12-0-Q/24 Xorazm viloyati hokimligi

Viloyat hududidagi umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprelda “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorining ijrosi hamda viloyat hududidagi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6 va 25-moddalariga asosan

Qaror qilaman:

1. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2024-yil 31-yanvardagi 10/6-634-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (M.Xudayberganov), viloyat avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi (D.Niyazmetov) shahar (tuman)lar hokimliklari bilan birgalikda ilovaga muvofiq viloyat hududidagi transport harakat jadalligi yuqori va tezlik oqibatida yo‘l-transport hodisalari ko‘plab kuzatilgan avtomobil yo‘llarining ayrim hududlarida belgilangan tezlik me’yori 100 km/soatdan 70 km/soat tezlikka o‘zgartirilsin va 3.24 – “70 yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Ushbu qaror “Xorazm haqiqati” va “Хорезмская правда” gazetalarida rasmiy e’lon qilinganidan keyin kuchga kiradi.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining qurilish,

kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari S.Bekchanov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **J.Raximov**

Xorazm viloyat hokimining
2024-yil 1-iyuldagi
260-12-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Viloyat hududida tezlik oqibatida ko‘plab yo‘l-transport hodisalari sodir bo‘layotgan avtomobil yo‘llarida tezlikni 70 kilometr/soatgacha cheklash belgilarini o‘rnatish joylari

RO‘YXATI

T/r	Avtomobil yo‘li nomi	Kilometr oralig‘i	Mas’ul tashkilotlar
1.	4R156 “Urganch sh. – Xonqa sh. – Hazorasp sh. – Toshsoqa orqali – Amudaryo – A-380 (553 km)” avtomobil yo‘li	5 – 6	Viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi
2.	4R160 “Urganch sh. – Gurlan sh. – Mang‘it sh. – Turkmaniston Respublikasi chegarasi” avtomobil yo‘li	11 – 14, 14 – 16, 19 – 22, 24 – 29, 30 – 34, 39.7 – 41.1, 43.7 – 45.2, 46.7 – 49.6, 51.5 – 56	Viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi
3.	4R170 “Xonqa sh. – Al-Xorazmiy qishlog‘i – Obod qishlog‘i”	7 – 8.6, 10 – 13.6, 14 – 19	Viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi